

“O‘zaviatsiya” agentligi  
direktorining  
2024-yil “26” yanvardagi  
16–son buyrug‘iga  
1–ilova

**“O‘zaviatsiya” agentligining  
Aviatsiya xodimlariga guvohnomalarni berish va uzaytirish bo‘limi  
to‘g‘risidagi  
NIZOM**

**1. Umumiy qoidalar**

1. “O‘zaviatsiya” agentligining Aviatsiya xodimlariga guvohnomalarni berish va uzaytirish bo‘limi to‘g‘risidagi Nizom (keyingi o‘rinlarda Nizom deb yuritiladi) O‘zbekiston Respublikasi Havo kodeksi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 19-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Fuqaro aviatsiyasi agentligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi 337-son qarori, Xalqaro fuqaro aviatsiyasi tashkilotining (keyingi o‘rinlarda IKAO deb yuritiladi) “Aviatsiya xodimlariga guvohnomalarni berish” 1-Ilovasi va “Aviatsiya xodimlariga guvohnomalarni berish bo‘yicha Davlat tizimini yaratish va ushbu tizimni boshqarish bo‘yicha qo‘llanma” Doc 9379-AN/916ga muvofiq ishlab chiqilgan bo‘lib, “O‘zaviatsiya” agentligining Aviatsiya xodimlariga guvohnomalarni berish va uzaytirish bo‘limi (keyingi o‘rinlarda AXGGB deb yuritiladi) faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

2. AXGGB o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, Transport vazirining buyruqlari va farmoyishlariga, IKAOning amaldagi standart va tavsiyalariga, “O‘zaviatsiya” agentligi to‘g‘risidagi Nizom, “O‘zaviatsiya” agentligi direktorining buyruqlari va ko‘rsatmalariga, qonunchilikda belgilangan boshqa hujjatlarga, shuningdek, ushbu Nizomga amal qiladi.

3. AXGGB o‘ziga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarni bajarishda “O‘zaviatsiya” agentligining tegishli bo‘limlari, fuqaro aviatsiya tashkilotlari, shuningdek, boshqa davlat organlari, muassasa va tashkilotlar bilan o‘zaro hamkorlik qiladi.

4. AXGGB boshlig‘i, bosh mutaxassis-inspektori, bosh tibbiy ekspert-inspektori, yetakchi mutaxassis-inspektori O‘zbekiston Respublikasi fuqaro va eksperimental aviatsiyasida parvozlar xavfsizligini nazorat qilish davlat inspektorlari statusiga egadirlar.

**2. AXGGBning asosiy vazifalari va faoliyat yo‘nalishlari**

## 5. Quyidagilar AXGBB xodimlarining asosiy vazifalari hisoblanadi:

O'zbekiston Respublikasi fuqaro aviatsiyasi aviatsiya xodimlariga guvohnoma berilishi, guvohnomaning amal qilish muddati uzaytirilishini belgilovchi O'zbekiston Respublikasi fuqaro aviatsiyasi qonunlari va nizomlarga rioya qilish;

O'zbekiston Respublikasi fuqaro aviatsiyasi aviatsiya xodimlari guvohnomalarini berish, muddatini uzaytirish, guvohnomalarni o'zgartirish, malaka va toifa darajalarini berish, tasdiqlash, oshirish (tushirish), uchun hujjatlarini ko'rib chiqish va rasmiylashtirish;

O'zbekiston Respublikasi fuqaro aviatsiyasi aviatsiya xodimlariga guvohnomalarini berish va muddatini uzaytirish, xodimlarni tayyorlash masalalari bo'yicha "O'zaviatsiya" agentligi bo'limlari, O'zbekiston Respublikasi fuqaro aviatsiyasi boshqa tizim va aviakompaniyalari bilan o'zaro hamkorlikda ish yuritish;

O'zbekiston Respublikasi fuqaro aviatsiyasi korxonalarining aviatsiya xodimlari guvohnomalari bilan bog'liq faoliyati ustidan nazorat olib borish;

O'zbekiston Respublikasi fuqaro aviatsiyasi vakolatdagi organlari tomonidan berilgan guvohnomaning qonuniyligini tasdiqlash va xorijiy davlatlar tomonidan berilgan guvohnomalarni tan olish;

## 6. Aviatsiya tibbiyoti bo'yicha quyidagi vazifalar:

parvozlarni tibbiy havfsizligini ta'minlash va o'z faoliyati soxasida parvozlarni tibbiy ta'minlanishini nazorat qilish;

xalqaro fuqaro aviatsiyasi Konvensiyasi va uning Ilovalari asosida fuqaro va eksperimental aviatsiyasida tibbiyot aviatsiyasiga oid normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish va taqomillashtirish;

Markaziy tibbiy-uchish ekspert komissiyasini (keyingi o'rinlarda MTUEK deb yuritiladi) va uning faoliyatini tashkil etish;

O'zbekiston Respublikasi fuqaro aviatsiyasi aviakorxonalarida TUEKni tayinlash ishlarini tashkil etish va ta'minlash, xamda TUEK faoliyatini nazorat qilishni amalga oshirish;

O'zbekiston Respublikasi fuqaro aviatsiyasida tibbiy xulosani olish nomzodlarini tibbiy ko'rikdan o'tkazish;

## 7. AXGBB faoliyatining asosiy yo'nalishlarini bajarish uchun quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

O'zbekiston Respublikasi fuqaro aviatsiyasi aviatsiya xodimlarini guvohnomalarini berish, muddatini uzaytirish hamda tasniflash masalalari bo'yicha IKAOning amaldagi tavsiyalari va standartlariga asosan me'yoriy-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish, ularga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish;

O‘zbekiston Respublikasi fuqaro aviatsiyasi aviatsiya xodimlari guvohnomalarini berish hamda muddatini uzaytirishda qabul qilingan qaror va hujjatlarni ko‘rib chiqish;

ATPL, CPL, ingliz tili darajasi varaqlarini (vkladish) rasmiylashtirish va O‘zbekiston Respublikasi fuqaro aviatsiyasi aviatsiya xodimlar guvohnomalarini berish, almashtirish hamda malaka va toifa darajalari jarayonini amalga oshirish;

guvohnoma berish, malaka va toifa darajasini oshirish (tushirish) va amal qilish muddatini uzaytirganda, uchuvchilar tarkibi, muhandis texnik tarkibi va havodagi harakatni boshqarish dispetcherlarida nazariy bilimlar, parvoz texnikasi, samolyotni yo‘nalishda boshqarish va amaliy ko‘nikmalarini tekshirish;

“O‘zaviatsiya” agentligi imtihon qabul qiluvchilarini tayinlash uchun nomzodlarni tanlash va tayinlash;

uchuvchilar tarkibi, muhandis texnik tarkibi va havodagi harakatni boshqarish dispetcherlarini klass, malaka va toifa darajalarini muddatidan oldin oshirish uchun hujjatlarni ko‘rib chiqish;

aviakorxonalarda aviatsiya xodimlarini litsenziyalash bo‘yicha faoliyati ustidan nazorat qilish;

AXGBBda xar bir guvohnoma egasining ish jildini shakllantirish, yuritish va saqlash;

O‘zbekiston Respublikasi fuqaro aviatsiyasi aviatsiya xodimlari guvohnomalarini berish Reyestrini yuritish, shuningdek ko‘rsatilgan mutaxassislarining (guvohnoma egalari) harakat hisobini olib borish;

bo‘limda ish yuritilishini olib borish;

O‘zbekiston Respublikasi fuqaro aviatsiyasi aviatsiya xodimlarining guvohnomalarini bekor qilish va yo‘q qilish.

“O‘zaviatsiya” agentligining aviatsiya xodimlarini litsenziyalash bo‘yicha xulosalarini tayyorlash va direktorga tasdiqlash uchun kiritish

Malaka oshirish kurslarini o‘z vaqtida o‘tash;

Fuqaro aviatsiyasi tashkilotlaridan “O‘zaviatsiya” agentligiga kelib tushgan test savolnomalarini ko‘rib chiqish va tasdiqlash;

Fuqaro aviatsiyasi tashkilotlaridan aviatsiya xodimlarini litsenziyalash masalalari bo‘yicha olingan hujjatlarni ko‘rib chiqish;

8. Aviatsiya tibbiyoti bo‘yicha quyidagi funksiyalar:

O‘zbekiston Respublikasi fuqaro aviatsiyasi TUEK tibbiy xulosalarini ekspert baxolash;

MTUEK va TUEKning davollash-sog'lomlashtirish va profilaktikaga doir tavsiyalari, uslubiy qo'llanmalarini aviatsiya shifokorlari tomonida rioya qilishni nazorat qilish;

fuqaro va eksperimental aviatsiyasida inson omillari bilan bog'liq bo'lgan aviatsiya xodisalari va insidentlarini tekshirishda qatnashish;

### **3. AXGBB tuzilmasi**

9. AXGBB tuzilmasi AXGBB boshlig'i, bosh mutaxassis-inspektori, bosh tibbiy ekspert-inspektori, yetakchi mutaxassis-inspektori va I-toifali texnikdan iborat.

10. AXGBB xodimlari o'z faoliyatida bevosita "O'zaviatsiya" agentligi direktori va direktor o'rinbosariga bo'ysunadi.

11. AXGBB boshlig'i va xodimlari "O'zaviatsiya" agentligi direktori buyrug'iga muvofiq lavozimiga tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi.

12. AXGBB boshlig'i, bosh mutaxassis-inspektori va yetakchi mutaxassis-inspektor lavozimida oliy aviatsiya ma'lumotga ega (uchuvchi, havodagi harakatni boshqarish dispetcheri yoki havo kemalriga texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha mutaxassis) bo'lgan shaxs ishlashi mumkin.

13. AXGBB bosh tibbiy ekspert-inspektor lavozimida oliy tibbiyot ma'lumotga ega (davolash fakultetini tamomlagan) bo'lgan shaxs ishlashi mumkin.

14. AXGBB boshlig'i lavozimiga oliy aviatsiya ma'lumotga ega bo'lgan (uchuvchi, havodagi harakatni boshqarish dispetcheri yoki havo kemalriga texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha mutaxassis) shuningdek, aviatsiya mutaxassislik bo'yicha kamida besh yillik ish stajiga ega bo'lgan shaxs tayinlanadi.

15. AXGBB xodimi lavozimiga birinchi marta tayinlangan shaxslar belgilangan tartibda stajirovkadan o'tadilar.

16. AXGBB xodimlariga ushbu Nizomda yoki boshqa qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilmagan funksiyalar yuklatilishiga yo'l qo'yilmaydi.

### **4. AXGBBning huquqlari, majburiyatlari va javobgarligi**

17. AXGBB bo'lim quyidagi huquqlarga ega:

tegishli rahbarlar bilan kelishilgan xolda, O'zbekiston Respublikasi fuqaro aviatsiyasi ekspluatantlari boshqaruv-uchuvchilar, rahbar tarkibining shaxslaridan zarur aviamutaxassislarni AXGBB faoliyatiga jalb etish;

aloxida xolatlarda "O'zaviatsiya" agentligi imtihon qabul qiluvchilari orasida zarur mutaxassislar bo'lmaganida, uchuvchilar tarkibi, muhandis texnik tarkibi va havodagi harakatni boshqarish dispetcherlaridagi nazariy bilimlar, parvoz texnikasi, samolyotni yo'nalish bo'yicha boshqarishni va amaliy ko'nikmalarini, O'zbekiston Respublikasi fuqaro aviatsiyasi ekspluatantlari rahbarlik, boshqaruv-uchuvchilar tarkibidan tekshirishga ruxsat berish;

AXGBB vakolatiga kiradigan masalalarni “O‘zaviatsiya” agentligi tarkibidagi boshqa bo‘limlar bilan birgalikda xal etish;

O‘zbekiston Respublikasi fuqaro aviatsiyasi korxonalaridan aviaxodimlar guvoxnomalarini berish, muddatini uzaytirish, toifa xamda tasniflash masalalari bo‘yicha hisobotlar, ma’lumotnomalar va boshqa zarur hujjatlarni talab qilish;

O‘zbekiston Respublikasi fuqaro aviatsiyasi aviakorxonalar rahbarlaridan xar chorakda guvoxnomaga ega bo‘lgan aviaxodimlarning xarakat va kuchishlari to‘grisida hisobotlarni talab qilish.

AXGBB qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

18. AXGBB majburiyatlari quyidagilardan iborat:

ushbu Nizom bilan AXGBB yuklangan topshirik va vazifalarning bajarish;

ko‘rsatma va me‘yoriy hujjatlar talablarining o‘z vaqtida va sifatli bajarish;

aviatsiya xodimlariga guvohnomalarini malaka va toifa darajalarini berish, muddatini uzaytirishda ular tomonidan chikarilgan xulosalarning xolisligini nazorat kilish;

AXGBB tomonidan ishlab chikilgan me‘yoriy hujjatlarning sifatini ta‘minlash.

19. AXGBB:

ushbu Nizom va boshqa qonun hujjatlari bilan yuklangan vazifa va funksiyalarni zarur darajada va samarali bajarish;

belgilangan tartibda va muddatlarda malaka oshirishi va attestatsiyadan o‘tishga majbur.

AXGBB xodimi qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

20. AXGBB xodimi o‘zi viza qo‘ygan hujjatlarning va o‘zi bergan xulosalarning qonunchilikka muvofiqligi uchun javob beradi.

21. AXGBB xodimi o‘z majburiyatlari va funksiyalari bajarilmaganligi yoki zarur darajada bajarilmaganligi uchun qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlikka tortiladi.

## **5. Yakunlovchi qoidalar**


22. AXGBB tuzilmasini o‘zgartirish qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

23. Ushbu Nizom talablarini buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo‘ladi.

“O‘zaviatsiya” agentligining  
Aviatsiya xodimlariga guvohnomalarni  
berish va uzaytirish bo‘limi to‘g‘risidagi  
Nizomiga ilova

“O‘zaviatsiya” agentligining Aviatsiya xodimlariga guvohnomalarni berish va  
uzaytirish bo‘limi

**TUZILMASI**



**Jami: 4 nafar**